

Rossiyada ta'lim tizimi

Og'abek Ixtiyor o'g'li Qo'ziboyev
Husniddin Safar Ali o'g'li Sodiqov
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rossiya ta'lim tizimi, ta'limga qaratilgan e'tibor, shu xususida olib borilayotgan islohotlar hamda yoshlarga berilgan imkoniyatlar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Rossiya ta'lim tizimi, oliy ta'lim, maktab, sifatli ta'lim, O'zbekiston ta'limi

Education system in Russia

Ogabek Ikhtiyor o'glu Koziboyev
Husniddin Safar Ali o'glu Sadikov
Tashkent State University named after Alisher Navoi

Abstract: This article talks about the Russian education system, the focus on education, the reforms being carried out in this regard, and the opportunities given to young people.

Keywords: Russian education system, higher education, school, quality education, Uzbekistan education

Ta'lim - kishilarning bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida o'zlashtirgan tajriba, ilm hamda ma'naviyatidir. Ta'lim olish huquqi Rossiya fuqarolarining asosiy, bosh huquqlaridan biri hisoblanadi. Rossiya ta'limining xususiyatlaridan biri sifatli ta'limni yo'lga qo'yish umumiy ta'lim sifatini oshirish hamda kasb-hunar ta'limi uchun sharoit yaratib berishdir. Rossiya oliy ta'lim muassasalarida beriladigan ta'lim boshqa davlatlarnikidan ancha yuqori hamda sifatli. Mamlakatda bu sohaga jiddiy e'tibor qaratiladi. Negaki, har bir davlatda bo'lganidek "Yoshlar - kelajak poydevori". Shu sababli ham barcha rivojlangan davlatlar, avvalambor, ta'lim sohasiga jiddiy e'tibor qaratishadi. Yoshlar ilmi, bilimli bo'lib voyaga yetishsagina o'z davlatiga, eliga, yurtiga foydasi tegadi, yurtini dunyoga tanitadi.

Hozirda Rossiyada 400ga yaqin nodavlat oliy o'quv yurtlari faoliyat yuritib kelmoqda hamda ularda 270 ming talaba tahsil olishi aniqlangan. Ta'lim bilan bog'liq xizmatlarning narxlari ham Rossiyada ancha past. Bu ham yoshlarga berilgan bir

imkoniyat desak adashmagan bo'lamiz. Bundan ko'rinadiki, Rossiyada ta'lim olishga imkoni yo'q yoshlarga ham davlat yordam qo'lini cho'zadi.

Rossiya rivojlangan mamlakatlarda faol o'rinlarda turadi. Rossiyaning ta'lim tizimi ham boshqa davlatlar bilan solishtirganda lider davlatlardan biri hisoblanadi. Rossiya davlati ta'lim tizimiga katta e'tibor ko'rsatmoqda. Rossiya davlatida oliy o'quv yurtlarining kvotalari ham ko'p. Malakali o'z ishining ustasi yani o'qituvchi va mutaxassislari ham ko'proq. Rossiya mamlakati o'quvchi va talabalarning ilmga, bilimga, iqtidorli salohiyatga ega bo'lganligi tufayli ishlab chiqarish sohasida, yaratuvchanlik ishlarida ham faoldir. Shundan ham bilishimiz lozimki, Rossiya yoshlari iqtidorli, bilimli hamda kreativ g'oyalar sohibi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bularning barchasi yaratib berilayotgan sharoitlarni to'la-to'kisligidandir. Yoshlarga yaratib berilgan sharoitlardan unumli, oqilona va samarali foydalanayotganlarni uchun ham Rossiya davlatida o'sish, rivojlanish bo'lmoqda.

Har qanday davlat ham yetuk taraqqiyotga erishish uchun ham pog'anama-pog'ana ko'tarilib boradi. Shundan so'ng esa o'sha qiyinchiliklarga, mashaqqatlarga bu bosqichlarga chiday olgan inson bo'ladimi, davlat bo'ladimi shundagina ularda o'sish va rivojlanish bo'ladi. Har qanday yutuqlarga osonlikcha erishib bo'lmaydi. Albatta o'sha joyda qandaydir azob, qiyinchilik bo'ladi. Bu mashaqqatlardan o'tishda insonga juda katta kuch kerak bo'ladi. Rossiya ta'lim tizimi ham O'zbekistonning ta'lim tizimiga o'xshash holda olib boriladi. Oliy o'quv yurtlarida o'quv tizimi ikki davrga ajratilar ekan. Birinchi semestr va ikkinchi semestr. Bu oraliq davomida o'quvchi, talabalar har xil mutaxassislar va o'qituvchilar bilim va ko'nikmalarini qo'lidan kelgancha yetkazib beradi va semestr tugagandan so'ng talabalar tomonidan imtihon topshiradi. Ya'ni bu imtihonda talabalar bir semestr davomida muntazam ravishda yig'gan ma'lumotlarni va kerakli xulosalarni mutaxassislarga taqdim etiladi. Shu yig'gan bilimlar asnosida talabalar mutaxassislar tomonidan berilgan mustaqil ish uchun berilgan vazifalarni bajara oladilar. Bunda ta'lim tizimi qanchalik rivojlangan bo'lsa talabalar va o'quvchilar uchun ham samarali ijod qilish uchun imkon bo'ladi.

Rossiyaning Konstitutsiyasida ham ta'lim tizimi haqida ko'p qonun va qarorlar qabul qilingan. Bundan asosiy maqsad mamlakatdan yetuk bilimdon, malakali kadrlarlarni, yoshlarni butun dunyo bo'ylab tanishtirish, davlat dovrug'ini jahonga yoyishdan iboratdir. Bu orqali Rossiya ta'lim tizimi qanchalik yaxshiligini, imkoniyatlari ko'pligini bilishimiz mumkin. Rossiya ta'lim tizimida yana bir ijobiy tomoni bor. Bu ham bo'lsa boshqa davlat fuqarolari uchun nufuzli oliy o'quv yurtlarida o'qish imkonining mavjudligidir. Ya'ni boshqa davlat fuqarolari uchun ham alohida o'qishga kirish uchun kvotalar ajratib qo'yilgan. Mamlakatda barcha imkoniyatlar yaratib qo'yilgan. O'qish jarayoni tugagandan so'ng talabalar uchun ta'til beriladi. Bu berilgan ta'tilda talabalar xohishlariga binoan o'sha mamlakatda qolib ishlash huquqi

yoki o'z mamlakatida qolib ta'tilni maroqli o'tkazishi mumkin. Bu ham Rossiyaning ta'lim tizimidagi bir yaxshi ijobiy tomoni desak ham bo'ladi.

Har bir davlat yuksalish yo'lida har qanday vazifani bajarishga tayyor bo'ladi. Shu sababdan ham Rossiya davlati asosan ta'lim sohasiga ham juda katta ahamiyat qaratadi. Ya'ni bundan asosiy maqsad, o'zlaridan yetuk, bilimli hamda zamonaviy yoshlarni, zukko avlodni yetishtirishdir. Shu sababdan Rossiya davlati ta'lim tizimiga doir ko'plab chora-tadbirlar olib bormoqda va qonunlarni chiqarmoqda.

Yana bir muhim jihatlaridan biri esa Rossiya ta'lim tizimi standartlarga javob beradigan darajada ishlab chiqilgan hamda puxta o'ylangan. Yana shuni aytish lozimki, mamlakatda malaka almashish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Ya'ni o'quvchi talabalarni boshqa davlatga yuborish orqali ularga katta imkoniyatlar yaratib beriladi. Boshqa davlatga borish orqali talaba va o'quvchilarda fikrlash doirasini kengaytirishga ham yordam beradi va o'sha joydagi mamlakatning ta'lim tizimini o'rganishga ham qaratilgan. Boshqa davlatdan kelgan talabalar Rossiyaga borsa ham ularni kutib olish ta'lim tizimini tushuntirishdan iborat bo'ladi. Rossiya bir gap bilan aytganda ta'lim tizimi isloh qilishi tubdan o'zgartirilib yuborildi.

Rossiya modeli quyidagi bosqichlarga bo'lingan: umumta'lim maktabi, to'liq o'rta maktab, gimnaziya va litsey kollejlari, institut (universitet, akademiya), magistratura hamda doktorantura. Bunga e'tibor bilan qarasa, Rossiya ta'lim tizimi ham O'zbekiston ta'lim tizimi bilan qisman o'xshash ekan. Rossiya universitetlarida ham o'quv yili O'zbekiston oliy ta'limidagidek 10 oy davom etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir davlat o'zi uchun yaxshi, porloq kelajak kutar ekan, eng avval farzandlariga ilm bersin. Bilimli, zakovatli, ma'naviyatli avlod el-yurt tayanchi hisoblanadi. Hamma mamlakat ta'lim sohasiga yaxshi e'tibor qaratsagina rivojlanish, o'sish, yuksalish bo'ladi. Ta'lim sohasida qancha imkoniyatlar yaratilsa o'quvchi-talabalarning ham o'qishga, o'rganishga ishtiyoqi baland bo'ladi. Ular o'zlari oldiga maqsad qo'yib berilgan imkonni, ishonchni oqlashga harakat qilishadi. Shu zaylda rivojlanish ham, yuksalish ham kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <http://russian-education.com/uz/osobennostiobr.html> ;
2. <https://tabrik.ru/uz/sistema-obrazovaniya-v-rossii-osobennosti-ponyatie> ;
3. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/rossiyada-ta-lim-tizimi-va-turlari>;
4. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. -T."Sano standart" nashriyoti. 2017.